

ANDIJON VILOYATIDA bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-may oylarida, Andijon viloyatida jami 5 335,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 120,3 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	5 335,2	120,3
Andijon shahar	1 686,5	127,1
Xonobod shahar	99,1	113,1
Oltinko'l tumani	164,2	115,5
Andijon tumani	426,6	120,0
Baliqchi tumani	97,7	120,3
Bo'ston tumani	152,9	116,4
Buloqboshi tumani	114,2	172,2
Jalaquduq tumani	136,4	111,1
Izboskan tumani	148,7	116,1
Ulug'nor tumani	70,9	110,7
Qo'rg'ontepa tumani	121,8	118,6
Asaka tumani	154,5	115,6
Marhamat tumani	169,3	109,9
Shahrixon tumani	299,0	115,9
Paxtaobod tumani	165,5	115,7
Xo'jaobod tumani	154,9	121,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-may oylarida Andijon viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 78,0 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 128,1 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,5 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 101,5 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,5 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 93,2 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	378,7	286,5	87,2
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	203,5	109,5	4 078,7
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	2 220,2	539,9	262,0
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	131,7	97,8	70,3
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	1 545,1	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	113,0	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-may oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 767,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 167,8 % ni tashkil etgan, umumiy hajmdagi ulushi 14,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, jami qurilish ishlari hajmining 56,6 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 115,8 % ni tashkil etgan holda 3 022,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 29,0 % ni yoki 1 545,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 113,0 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Andijon viloyati	767,9	3 022,2	1 545,1	167,8	115,8	113,0
Andijon shahar	317,2	1 281,8	87,5	173,8	120,6	108,4
Xonobod shahar	0,5	92,5	6,2	37,8	113,6	123,3
Oltinko'l tumani	2,8	145,7	15,7	107,6	115,6	116,4
Andijon tumani	197,5	201,1	28,0	153,6	99,0	117,5
Baliqchi tumani	3,5	60,6	33,5	378,0	127,4	102,6
Bo'ston tumani	12,3	123,1	17,6	472,7	108,8	112,2
Buloqboshi tumani	48,2	40,8	25,2	357,7	139,3	107,0
Jalaquduq tumani	16,5	61,1	58,9	72,1	128,1	112,6
Izboskan tumani	3,2	127,1	18,4	316,1	112,9	126,5
Ulug'nor tumani	6,1	55,9	9,0	113,4	108,6	123,8
Qo'rg'ontepa tumani	15,0	48,9	57,9	550,1	102,6	110,7
Asaka tumani	5,1	62,6	86,9	100,8	125,9	110,0
Marhamat tumani	3,8	110,5	55,0	312,7	105,4	114,7
Shahrixon tumani	7,0	235,9	56,1	383,2	114,2	113,1
Paxtaobod tumani	3,5	94,0	68,0	297,5	120,7	106,2
Xo'jaobod tumani	38,5	104,2	12,3	176,0	110,5	107,3

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qo'rg'ontepa tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 550,1%), va Bo'ston tumanida (472,2%) qayd etildi.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiya va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

M.Sotvoldiyev
74 224-29-37 (6020)

Manzil:

